

MUSIQA

3

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining
3-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



TOSHKENT – 2022

**Mualliflar:**

Nadim Norxo'jayev
Dilnora Umidova
Noibaxon Rashidova

Taqrizchilar:

G. Mansurova –
R. Glier nomidagi Respublika
ixtisoslashtirilgan musiqa
maksiyati xor dirijorligi
bo'limi boshlig'i.

L. Quttiboyev –
Toshkent viloyati
Parkent tumanidagi
3-umumy o'rta ta'limg maksiyati
direktori.

V. Gapparova –
Toshkent shahridagi
203-umumy o'rta ta'limg
maksiyating musiqa
madaniyati fani
o'qituvchisi.

I BOB.
MUSIQADA PAUZALAR.....4

II BOB.
MUSIQA OLAMIGA
SAYOHAT.....24

III BOB.
ANSAMBL TURLARI.....42

IV BOB.
KOMPOZITORLAR
BOLALARGA.....60

UO'K 78(075.3)
KBK 85.31ya72
N 79

Shartli belgilar

– musiqa tinglash



– jamoa bo'lib kuylash



– musiqa savodi



– mashq daftarida bajaring



– musiqa ijodkorligi



– topshiriq

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiysi
Respublika ta'limg markazi tomonidan
ishlandi.

ISBN 978-9943-7813-7-5

© Respublika ta'limg markazi, 2022



SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchi! Qo‘lingizdagи “Musiqa” darsligи sizni g‘aroyib kuy va ohanglar dunyosiga boshlaydi, his-tuyg‘ularingizni noziklashtirib, didi-nigizni charxlaydi, go‘zallikni sevishga o‘rgatadi.

Siz 3-sinfda musiqa ohanglarini diqqat bilan tinglash hamda qo‘shiqlarni xushohang qilib kuylash malakalarini o‘zlashtirasiz, musiqa savodi bo‘yicha yangi bilimlarni egallaysiz, kompozitor va bastakorlar ijodi bilan tanishasiz. Musiqiy ko‘nikmalingizni yanada boyitasiz. Yil davomida kuylaydigan qo‘shiqlaringiz sizni ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Baxtli bolalik mavzularini tarannum etadi. Shuning uchun ham kuy va qo‘shiqlar mazmunini chuqurroq anlang, so‘z va ohang birligini idrok eting. Ifodali va xushohang tarzda ijo etish malakasini yanada puxtarloq o‘zlashtirib olishga erishing.

Mualliflar





I BOB MUSIQADA PAUZALAR

Qo'shiq kuylash qoidalari.....	5
Mustaqilligimizni kuylaymiz..	6
O'zbekiston Respublikasi	
Davlat madhiyasi	
<i>A. Oripov she'ri,</i>	
<i>M. Burhonov musiqasi.....</i>	7
Takrorlash.....	8
Pauzalar haqida tushuncha.	
Butun pauza.....	9
Marsh	
<i>N. Norxo'jayev musiqasi.....</i>	9
Salom, maktab	
<i>E. Rahimov she'ri,</i>	
<i>J. Najmiddinov musiqasi.....</i>	10
Yarimtalik pauzalar.....	11
Jek va Jil	
<i>Ingliz xalq qo'shig'i.....</i>	12
O'zbek bolalarimiz	
<i>A. Haydarov she'ri va musiqasi.....</i>	13
Chorak va nimchorak	
pauzalar.....	14
Soat qo'shig'i	
<i>R. Tolib she'ri,</i>	
<i>N. Norxo'jayev musiqasi.....</i>	15
O'yinasang-chi, tipratikan	
<i>P. Mo'min she'ri,</i>	
<i>N. Norxo'jayev musiqasi.....</i>	16
3/4 va 4/4 o'lchovi.....	17
Salom, quyoshjon	
<i>N. Norxo'jayev musiqasi,</i>	
<i>R. Tolib she'ri.....</i>	19
Ona tilim	
<i>A. Haydarov musiqasi va she'ri.....</i>	21



MUSIQADA PAUZALAR





1-chorak



QO'SHIQ KUYLASH QOIDALARI

1. Qo'shiq kuylaganda gavdani to'g'ri va erkin tuting.
2. Qo'shiq kuylaganda tekis nafas oling, kiftlaringiz ko'tarilmasin. Nafasni tejab, jumla oxiriga qadar bir me'yorda yetkazing.
3. Qo'shiqdagi unli tovushli bo'g'lnlarni cho'zibroq, undosh tovushli bo'g'lnlarni esa tez va burro talaffuz eting.
4. Tovushingizni yengil va yoqimli chiqarishga, qo'shiqlarni esa ifodali aytishga o'rganing.
5. Har bir qo'shiq mazmunini tushunib aytishga o'rganib boring.
6. Xor bo'lib qo'shiq aytganda ko'pchilikning ovoziga quloq soling va ovozingiz ajralib qolmasligiga e'tibor bering.
7. O'qituvchingiz qo'l harakatiga diqqat bilan qarang va barcha ishoralarни aniq bajarishga odatlaning.
8. Ovozingiz baxt-u boyligingiz ekanini unutmang. Uni doimo ehtiyot qiling, avaylab-asrang. Sog'lom va jarangli ovoz bilan aytilgan yaxshi so'z ham, yaxshi qo'shiq ham dil rohati ekanini yodda tuting.



1-chorak

1-dars

MUSTAQILLIGIMIZNI KUYLAYMIZ

Aziz bolajon! Quyi sinflarda Vatanimiz mustaqilligi, obodligi, go'-zalligini tarannum etuvchi "Qadim Turon", "Vatanjonim, vatanim", "Aziz bo'ston – O'zbekiston" kabi ajoyib qo'shiqlarni kuylashni o'rgandingiz. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ham ser-quyosh diyormizni, uning maftunkor tabiat, mehridaryo xalqi, shijoatli yoshlarini madh etuvchi qo'shiqdir. Siz uni ustozingiz yordamida ifodali kuylashga o'rganing.



Mashq kuylaymiz

Qo'shiq kuylaganda so'zlarni tushunarli, ravon talaffuz qilish muhim ahamiyatga ega.

So'z bilan ohang mujassamlashib, tinglovchiga yetib borishi lozim.

Quyidagi mashq yordamida talaffuzni o'stirishga harakat qilamiz:

2/4

Jon - li, jon - li kuy - lang,

a - niq, bur - ro kuy - lang,

ort - da qol - mang as - lo,

bir - ga - lik - da kuy - lang.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MADHIYASI

A. Oripov she'ri,
M. Burhonov musiqasi



Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay toabad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!


Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'rikeng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!





1-chorak



TAKRORLASH

Avvalgi sinfda tanishganingizdek, kuy taktlarga bo'linadi. Takt kuchli va kuchsiz hissalardan tashkil topadi. Kuchli hissa oldidan qo'yilgan tikka chiziq takt chizig'i deyiladi.



1-takt

2-takt


3-takt

4-takt



Taktlar ikki, uch, to'rt chorakka teng bo'lgan turli cho'zimdagи notalar dan tuzilishi mumkin. Takt **o'Ichovini** ko'rsatuvchi raqamlar esa kalitdan so'ng yoziladi.

	==	
	==	
	==	



Ikkita chiziqli takt chizig'i oldidagi ikki nuqta asarning hammasini yoki uning ko'rsatilgan qismini takrorlab ijro etish kerakligini bildiradi. Buni biz "repriza" – qaytariq belgisi deb ham ataymiz. U kuy bo'lagining takrorlanishi lozim bo'lgan taktlarining boshi va oxiriga qo'yiladi.



Nota daftaringizda mashq bajaring.




2–3- darslar

PAUZALAR HAQIDA TUSHUNCHA. BUTUN PAUZA

Qo'shiq yoki kuyning biron yerida tovushlar to'xtashi yoki tinishi zarur bo'lsa, pauzalardan (tinish belgilardan) foydalaniladi.

Notalar cho'zimi har xil bo'lganidek, pauzalar ham har xil cho'zimda bo'ladi.

Butun pauza butun notaga teng bo'lgani holda mana bunday yoziladi:




Nota daftariga butun pauzalarni to'g'ri yozing.




MARSH

N. Norxo'jayev musiqasi



Quvnoq



1-chorak

**SALOM, MAKTAB**

E. Rahimov she'ri,
J. Najmiddinov musiqasi

O'rtacha tez

2/4

Sheet music for 'SALOM, MAKTAB'. The lyrics are: Sa - lom, mak - tab, jon mak - tab, Se - ni se - va - man, maq - tab. Biz - ga o - chiq qu - cho - g'ing, Yo - ning - da gul - zor - bo - g'ing. The music includes two endings: 1. and 2.

Salom, maktab, jon maktab,
Seni sevaman, maqtob.
Bizga ochiq quchog'ing,
Yoningda gulzor – bog'ing.

Mana qo'limda kitob,
O'qish kitob ham hisob.
Sharillatib o'qiymen,
Bilag'on bo'lay deyman.

Qalam, ruchkam bor, mana,
Yozaman dona-dona.
Xatim bo'lsin chiroyli,
Kulib tursin naq oydak.


Salom, maktab, jon maktab,
Qo'shiq aytaman maqtob.
Men ham belcha ushlayman,
Gulbog'ingda ishlayman.



**4–5-
darslar**
YARIMTALIK PAUZALAR

Yarimtalik pauza yarimtalik notaga teng bo'ladi.

Yarimtalik pauza mana bunday yoziladi:



Quyidagi namunadan yarimtalik pauzalarni topib sanaymiz.



Nota daftariga yarimtalik pauzani to'g'ri yozing.




Quyidagi aytim mashqini birgalikda kuylaymiz. Yarimtalik pauza qo'yilgan joylarda ovozni to'xtatib, chapak chalamiz.

Zuv - zuv bo - ra - g'ay, tom - dan qa - ra - g'ay.

Sul - ton o' - qi - g'ay.

Zam - bil to' - qi - g'ay.



1-chorak



JEK VA JIL



Ingliz xalq qo'shig'i

O'rtacha tez

6
p

mf





O'ZBEK BOLALARIMIZ

A. Haydarov she'ri va musiqasi



Baxtdan ko'ngil yayraydi,
Ko'zda shodlik porlaydi.
Jahon uzra baralla,
Ovozimiz yangraydi.

Naqarot:

O'zbek bolalarimiz,
Gul-u lolalarimiz.
Chaqqon, kuchli, zehnli,
Tirishqoq har birimiz.

Naqarot.

Navro'z har bir kunimiz,
Xayrli har tunimiz.
Bizni jon-dildan sevar,
Ota-onalarimiz.

Naqarot.

Hammamiz bir tan, bir jon,
Vatanimiz – jonajon,
Yuqtirmaymiz sha'niga,
Zarracha gard hech qachon.

Naqarot.



Baxt-dan ko'n-gil yay-ray - di, Ko'z-da shod-lik por-lay - di.






1-chorak

6–7- darslar

CHORAK VA NIMCHORAK PAUZALAR


Chorak pauza ham chorak nota singari o‘z cho‘zim va o‘lchoviga ega.
 Chorak pauza chorak notaga teng bo‘lgani holda mana bunday yozi-
 ladi:




Mashq daftaringizda bajaring.



Nimchorak pauza nimchorak notaga teng. Nimchorak pauza mana bunday yoziladi:



Quyidagi mashqni nimchorak pauzalarga rioya qilib aytamiz.

Quvnoq

2/4

Chaq - qon, chaq - qon kuy - lay - miz.
Ra - von, ra - von kuy - lay - miz.

Musiqa asaridagi pauzalar turlicha bo'l shini bildingiz. Quyidagi kuy-ni tinglang va undagi nimchorak pauzaning taktlarda kelishiga e'tibor bering.

SOAT QO'SHIG'I

R. Tolib she'ri,
N. Norxo'jayev musiqasi

Tez

2/4

Men so-at - man, men so-at. Chiq, chiq - chiq Qil-gin men-ga
i - to - at, Chiq, chiq - chiq. Men va-qt - ga pos-bon - man,
Chiq, chiq - chiq. Uy-g'on-may-san, hay-ron-man, Chiq, chiq-chiq.



1-chorak

**O'YNASANG-CHI, TIPRATIKAN**


*P. Mo'min she'ri,
N. Norxo'jayev musiqasi*

Sen ham kelib o'ynasang-chi,
Xijolatga qo'ymasang-chi.
Tipratikan, tipratikan,
O'yinga tush dikang-dikang.

Qarab turgin, o'yin tushay,
Qushday uchay, qushday uchay.
Tipratikan, tipratikan,
O'yinga tush dikang-dikang.

Nega hamma yog'ing tikan,
Kiyib olgin qalin chopon.
Tipratikan, tipratikan,
O'yinga tush dikang-dikang.

Asta o'zim o'rgataman,
Qo'ling ushlab o'ynataman.
Tipratikan, tipratikan,
Kel, o'ynaymiz dikang-dikang.




2/4 o'Ichovida mashq bajaring.

2/4

1i 2i 1i 2i 1i 2i 1i 2i

8-9-
darslar



3/4 VA 4/4 O'LCHOVLARI




Taktdagi hissa (uch)

Har bir hissaning uzunligi (chorak)

Ushbu o'lchov ham musiqiy kalitdan keyin qo'yiladi.




Mashq daftaringizda bajaring.





1-chorak



taktdagi hissa (to'rt)

har bir hissaning uzunligi (chorak)

Ushbu o'lchov ham musiqiy kalitdan keyin qo'yiladi.



Mashq daftaringizda bajaring.




1



2



3



18

**SALOM, QUYOSHJON**

N. Norxo'jayev musiqasi,
R. Tolib she'ri

**Sho'x**

Qu-yosh, qu-yosh, qu-yosh - jon, Sa-lom, sa-lom,
jo- na - jon. Mo-viy ko'k-da ya-raq-la, ya-raq - la,
Nu - ring so - chib cha - raq - la, cha - raq - la.
Mo - viy ko'k- da ya - raq - la, ya - raq - la.
Nu - ring so - chib cha - raq - la.
Qu-yosh, sen-ga o'r- toq - man, Sen-day sho'x-man, quv-noq-man.
Ku-lib - ku- lib yur, qu- yosh. Nur-dan so-lib ar-g'im-choq,
O'y-nay-man shod, xush-chaq-chaq, Nur qo'- ling - ni
§
ber, qu -yosh! Nur qo'- ling - ni ber, qu -yosh!

Naqarot:

1. Quyosh, quyosh, quyoshjon,
Salom, salom, jonajon.

Quyosh, senga o'rtoqman,
Senday sho'xman, quvnoqman.



1-chorak

Moviy ko'kda yaraqla,
Nuring sochib charaqla.

Kulib-kulib yur, quyosh.
Nurdan solib arg'imchoq,


O'yнayman shod, xushchaqchaq,
Nur qo'lingni ber, quyosh!

2. Uyg'onib tong nahorda,
Ko'ngil quvnar bahorday.
Olam to'ldi gullarga,
Olam to'ldi nurlarga.

Naqarot.

3. Baxtli, go'zal zamonda,
Men yayrayman bo'stonda.
Tong yashnaydi dilimda,
Do'stlar tutar qo'limdan.

Naqarot.





ONA TILIM

A. Haydarov musiqasi va she'ri

Vals tempida $\text{♩} = 200$

Shi-rin, qand-u a-sal - san, She'r-u g'a-zal,

masal - san. Hamma til-lar - dan a' -lo, Chi-roy-

li - san, go' -zal - san. O...

Naqarot:

O- na ti-lim, o'z-bek ti-lim, jon ti-lim,

Naz-m-u na-sr, bi-lim - lar-ga kon ti-lim.

kon ti - lim. Jon

Shirin, qand-u asalsan,
She'r-u g'azal, masalsan.
Hamma tillardan a'lo,
Chiroylisan, go'zalsan.



1-chorak

Naqarot:

Ona tilim, o'zbek tilim, jon tilim,
Nazm-u nasr, bilimlarga kon tilim.

Men senda o'quvchiman,
Ma'nolar uquvchiman.
So'zlaring ummonidan
Dur, gavhar topuvchiman.

Naqarot.

Navolarim o'zbekcha,
Sadolarim o'zbekcha.
Jo'shib kuylayin qo'shiq,
Yayrab ko'nglim to'lguncha.

Naqarot.

Shi - rin, qan - d-u a - sal - san,
She' - r-u - g'a- zal, ma - sal - san.



O'rgangan qo'shig'ingizning o'Ichovini aniqlang.

Naz-m-u na-sr, bi-lim - lar- ga kon ti-lim.





**II BOB
MUSIQA
OLAMIGA SAYOHAT**

Musiqaning ifoda vositalari.....25

Andante

Y. Gaydn musiqasi.

“Surpriz” simfoniyasining

2-qismidan parcha.....25

Svetofor

S. Ochil she’ri,

S. Nurmetov musiqasi.....26

Ritm (usul).....28

Marsh

D. Omonullayeva musiqasi.....29

Diyor madhi

H. Rahmat she’ri,

N. Norxo’jayev musiqasi.....30

Musiqa va harakat. Raqs.....32

O’rdakchalar raqsi

Fransuz xalq raqsi.....33

Jon Vatan

K. Turdiyeva she’ri,

I. Yo’ldosheva musiqasi.....34

Torli cholg’u. Chang.....36

Oymoma

M. Tojiboyev Navo maqomi

ohanglari asosida yaratgan.....37

Quvnoq bolalar qo’shig’i

X. Qayumov she’ri,

G. Qodirov musiqasi.....38

Mustahkamlash uchun

savol va topshiriqlar.....40

II BOB

**MUSIQA
OLAMIGA SAYOHAT**





2-chorak

1–2-
darslar

MUSIQANING IFODA VOSITALARI

Musiqa san'atning bir turidir. U turli cho'zim va balandlikdagi tovushlar yordamida obraz yaratib beradi. **Musiqaning asosi kuy bo'lib, o'lchov, usul, sur'at va dinamik belgilar** musiqaning ifoda vositalari hisoblanadi.

Musiqiy tovushlarning o'zaro bog'lanishi **kuy, ohang** deyiladi. Taktda kuchli va kuchsiz hissalarning o'zaro bog'lanishi **o'lchov** deyiladi.

Musiqiy tovushlarning kuchli va kuchsiz bo'laklari bir maromda kelishi **usul** deyiladi.

Kuy tezligi **sur'at** deyiladi.

Kuyning kuchli yoki kuchsiz jaranglashini ko'rsatuvchi belgilar **dinamik belgilar** deyiladi.



Quyidagi kuyni tinglab, undagi ifoda vositalarini o'zingiz toping.


**ANDANTE
“SURPRIZ” SIMFONIYASINING 2-QISMIDAN PARCHA**

Y. Gaydn musiqasi



Andante – shoshilmasdan



2-chorak

**SVETOFOR**

S. Ochil she'ri,
S. Nurmetov musiqasi



O'rtacha

Uch o - g'ay-ni bo - tir - -miz, Uch xil rang -da no- dir - -miz.

Qi -zil, ya-shil, sariq - -miz, Kuch-qud -rat-ga qo-dir - -miz.

1. 2. *tr*

Ham-ji - hat-miz do- im biz, Chor-ra - ha- lar

jo - yi - -miz. Vaq-ti bi - lan nur so - char Uch-ta to' - lin

tr

o - yi - -miz. Qi - zil, ya-shil,

sa -riq - -miz, Kuch-qud -rat - ga qo -dir - -miz.

Uch og'ayni botirmiz,
Uch xil rangda nodirmiz.
Qizil, yashil, sariqmiz,
Kuch-qudratga qodirmiz.

Hamjihatmiz doim biz,
Chorrahalar joyimiz.
Vaqti bilan nur sochar,
Uchta to'lin oyimiz.




Qizil yonsa, tik turing,
Yashil yonsa, tez yuring,
Sariq yonsa, ehtiyot
Chorasini ham ko'ring.

Gapimiz shu sizlarga,
Barcha o'g'il-qizlarga:
Duch kelmaysiz xatarga,
Qulq soling bizlarga.

Sheet music and lyrics:

Qi -zil, ya-shil, sariq - miz, Kuch-qud -rat-ga qo-dir - miz.

● ● ● ● | ● ● ● | ● ● ● ● ●



Sheet music with counts below the notes:

2 3 2 3 2 3 2 3





2-chorak

3–4- darslar

RITM (USUL)

Ritm – uzun va qisqa tovushlarning bir maromda almashinishi. Mu-siqa tovushi bilan ritm chambarchas bog'liqdir. Biz ritmni usul sifatida ifoda etishimiz mumkin.

Masalan, soat chiqillashini yurak urishi, otning chopishi bilan taq-qoslash mumkin. Har bir qo'shiq yoki kuyning o'z ritmi bor



Soatning
chiqillashi




Yurakning urishi



Taqanining
taqillashi

Har bir qo'shiq yoki kuyning o'z ritmi bor.



Aziz bolalar! Siz avvalgi darslarda musiqa asari xarakterini yoritib berishda musiqaning ifoda vositalari asosiy o'rinni egalashini bildingiz. Kompozitorlar kuy yoki qo'shiq yaratishsa, ifoda vositalaridan biri bo'lgan usulga (ritm) alohida e'tibor beradilar. Quyidagi siz tinglaydigan asarda sur'at bilan usul o'zaro bog'lanib, kuy xarakterini ochib bergeniga e'tibor qarating.



MARSH

D. Omonullayeva musiqasi



Quvnoq

The musical score is composed of five staves of music for a single instrument. The key signature is one sharp (F#), and the time signature is common time (indicated by '2'). Dynamics include 'f' (forte) and 'mp' (mezzo-forte). The music features various note values including eighth and sixteenth notes, and rests.





2-chorak



DIYOR MADHI

H. Rahmat she'ri,
N. Norxo'jayev musiqasi



Kuychan

O-na Va-tan er-ta - si, Ke-la-jak-ning me-va - si,
 Bi-lim, hu-nar e-ga - si Biz bo'-la-miz al-bat - ta,
 Ni - yat - lar ul - kan, kat - ta. a - - - - .
 Ni - yat - lar ul - kan, kat - ta.

1. Ona Vatan ertasi,
 Kelajakning mevasi,
 Bilim, hunar egasi.
 Biz bo'lamiz albatta,
 Niyatlar ulkan, katta.

2. Orzularim uch berar,
 Diyor mehri kuch berar.
 Dilda yorug' tuyg'ular,
 Yorug'likka oshnamiz,
 Ezgu ishga tashnamiz.



3. Dovruqlidir Vatanim,
Obro'lidir Vatanim,
Dunyodagi chamanim,
Ko'z qoramdek saqlayman,
Ishonchingni oqlayman.

4. Temur bobom dilda bor,
O'lkam bo'lur gul, obod.
Bayroqni tutib ozod,
Shod boramiz ilgari
Mard o'g'lonlar singari.

Musical notation for two songs. The top part shows measures 1-4 of the first song, followed by a repeat sign and measures 5-8. The bottom part shows measures 1-4 of the second song.



4/4 o'lchovidagi chorak pauzalar ishtirok etgan namunani
mashq daftaringizga husnixat bilan to'g'ri ko'chiring.





2-chorak

5–6- darslar

MUSIQA VA HARAKAT. RAQS

Musiqa – turli tovushlar yordamida obraz yaratuvchi san'at turi. U hissiy mazmunga ham egadir. Musiqa va harakat birgalikda kuy mazmunini ifoda etadi. Kuy mazmunini ifoda etgan harakatlarni esa **raqs** deb ataymiz.

Raqs – san'atning bir turi. U musiqadagi usullar va ohanglarga qarab sho'xchan va jozibador bo'ladi. Raqs kuyini tinglagen odam bexosdan harakatga tushadi. Chunki bunday kuy tinglovchini raqsga chorlaydi.

Har bir xalqning o'z sevgan raqs kuylari bor. Bizda “Andijon polkasi”, “Lazgi” kabi raqs kuylari, ayniqsa, mashhur. Siz mana bu raqs kuyini tinglang-da, unga qanday harakatlar mos kelishini o'zingiz toping.





O'RDAKCHALAR RAQSI



Fransuz xalq raqsi

Quvnoq





2-chorak



JON VATAN

K. Turdiyeva she'ri,
I. Yo'Idosheva musiqasi

Bizlar toy-toy yurgan hovli, uylar ham,
Onajonlar aytgan alla, kuylar ham,
Bog'cha, maktab tomon eltgan yo'lakcha –
Vatanimiz dunyo ichra bo'lakcha.

Naqarot:

Tug'ilgan kun muborak,
Jon Vatan, jon Vatan.
Sen bizlarga sevimlisan
Hammadan, hammadan.
Qayga borsak, kelar yurtga
Qaytgimiz, qaytgimiz.
Eng yaxshisan deya
Takror aytgimiz, aytgimiz.
Tug'ilgan kun muborak
Jon Vatan, jon Vatan.

Vatan asli mahalla-ko'y, o'rtoqlar,
Atrofdagi daraxtlar-u gulbog'lar,
Sen o'zingsan bizga mehr ulashgan,
Yuragimiz sening birla birlashgan.

Music notation for the first part of the song. The lyrics are: Va - tan as - li ma - hal - la - ko'y, o'r - toq - lar,

Music notation for the second part of the song. The lyrics are: At - rof - da - gi da - raxt - lar - u gul - bog' - lar.



MASHQ KUYLAYMIZ!

Qo'shiq kuylaganda so'zlarni tushunarli, ravon talaffuz qiling.

Quyidagi mashq yordamida talaffuzni o'stirishga harakat qiling.

Berilgan namunani "Iya" bo'g'inida ifodali kuylab, qo'shiq ohangini va nomini toping.



Berilgan namunaning o'lchovini toping va takt chizi-g'ini to'g'ri qo'yib, mashq daftaringizga ko'chiring.



Quyidagi namunada yetishmayotgan nota cho'zimlarini toping va ularning sanog'ini chapakda ifodalang.



2-chorak


7-
dars

TORLI CHOLG'U. CHANG CHOLG'USI

Chang – ko‘p torli zARBli-chertma musiqiy cholg‘udir. U tayoqchalar bilan ikki usulda: urib yoki chertib chalinadi. Tayoqchaning uchiga rezina o‘rnatilgan bo‘lib, u jarangdor tovush hosil qiladi.

Chang o‘zbek xalq cholg‘usi sifatida keng tarqalgan. Uning yog‘och asosiga metall simlar uzunasiga tortilgan. Simlar sozlash paytida maxsus kalit yordamida buraladigan o‘tkir metallarga mahkamlangan.

O‘tkir metall simlar





OYMOMA


*M. Tojiboyev Navo maqomi
ohanglari asosida yaratgan*




O'rtacha tez



Oy -mo-ma chiq-di os-mon- ga, O'x -shay-di shir - moy non-ga.




Ku-mush yog'-du -lar soch-di, Ku-mush yog'-du -lar soch-di,




Qo-ron -g'i - lik -lar qoch-di, Oy-din-da ma-za, o'y- nay - miz,



Oy-din-da ma-za, o'y- nay - miz, O'y - nab si -ra - to'y- may -miz,



O'y - nab si - ra - to'y - may - miz.





2-chorak



QUVNOQ BOLALAR QO'SHIG'I

X. Qayumov she'ri,
G'. Qodirov musiqasi

Quvnoq

Quvnoq

Qor yo - g'ar, qor yo - g'ar – Oq par - ga o'x - shar.

Xo - na - miz gul och - gan Ba - hor - ga o'x - shar.

Yan - gi yil ar - cha - sin Be - zat - dik ko'r - kam.

Shox - la - ri tov - la - nar, Chi - roy - li bi - ram.

Qor yog'ar, qor yog'ar –
Oq parga o'xshar.
Xonamiz gul ochgan
Bahorga o'xshar.

Yangi yil archasin
Bezatdik ko'r kam.
Shoxlari tovlanar,
Chiroyli biram.

Naqarot:

Davrani keng olib,
Boshlaymiz o'yin.
Aytamiz Yangi yil
Qo'shig'in, kuyin.



38





NOTA BILAN KUYLAYMIZ

Quyidagi mashqni avval nota nomlarini aytib, so'ngra so'zlar bilan kuylang.

Mashqni kuylashda nafasni uzmaslikka harakat qiling.

Past - dan yu - qo - ri chiq - dik,
En - di past - ga tu - sha - miz.

Mana bu mashqni esa "Iya" bo'g'ini yordamida kuylang.



Mashq daftariga takt chizig'ini qo'yib, to'g'ri ko'chiring.



2-chorak

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qo'shiq kuylayotganda qanday nafas olamiz?
2. Qo'shiqdagi unli tovushli bo'g'irlarni qanday kuylaymiz? Undosh tovushli bo'g'irlarni-chi?
3. Xor bo'lib qo'shiq aytganda nimalarga ahamiyat berishimiz zarur?
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasining mazmunini so'zlab bering. Uni qanday tinglash va kuylash kerak?
5. Takt nima? Takt chizig'i-chi?

6. Ushbu o'Ichov qo'yilgan taktda nimchorak notalar soni nechta bo'ladi?

7. Ushbu o'Ichov qo'yilgan taktda chorak notalar soni nechta bo'ladi?

8. Ushbu o'Ichov qo'yilgan taktda yarimtalik notalar soni nechta bo'ladi?

9. Bu qanday belgi? Uning vazifasini so'zlab bering.

10. Bu qanday belgi? Undan qachon foydalanamiz?

11. Bu qanday belgi? U nechaga sanaladi?

12. Bu qanday belgi? U nechaga sanaladi?



13.  Bu qanday belgi? U nechaga sanaladi?
14. "Salom, quyosh" qo'shig'ining musiqasini kim yozgan? Ushbu qo'shig' mazmunini so'zlab bering.
15. "Diyor madhi" qo'shig'ining musiqasini kim yozgan? Ushbu qo'shig' mazmunini so'zlab bering.
16. Bu chorakda qanday musiqa asarlarini tingladingiz? Qanday raqs kuylarini bilasiz?
17. Musiqaning qanday ifoda vositalarini o'zlashtirib oldingiz? Musiqa-da ifoda vositalari nima uchun kerak?
18. "Ona tilim" qo'shig'ining musiqasini kim yozgan? Ushbu qo'shig' mazmunini so'zlab bering.
19. Sizga qanday qo'shig' va musiqalar yoqadi?
20. Musiqaning asosi nima?
21. Musiqaning ifoda vositalari deganda nimani tushunasiz?
22. Kuy, ohang haqida tushuncha bering.
23. O'Ichov nima?
24. Sur'at nima?
25. Usul (ritm) nima?
26. Raqs nima? Qanday raqlarni bilasiz?
27. "Jon Vatan" qo'shig'ining mualliflari kim? Uning mazmunini so'zlab bering.
28. Chang qanday cholg'u? Uni nima yordamida ijro etamiz?
29. "Quvnoq bolalar" qo'shig'ining mualliflari kim? Uning mazmunini so'zlab bering.
30. Berilgan namunani nota nomlari bilan kuylang.






III BOB ANSAMBL TURLARI

Ansambl.....	43
Katta bug‘u	
<i>Fransuz xalq qo‘shig‘i.....</i>	45
Yosh askarlar qo‘shig‘i	
<i>S. Barnoyev she’ri,</i>	
<i>S. Jalil musiqasi.....</i>	46
Cholg‘uchilar ansambli	48
Usmoniya	
<i>O‘zbek xalq kuyi.....</i>	49
Barkamol avlod bo‘lib	
<i>P. Mo‘min she’ri,</i>	
<i>N. Norxo‘jayev musiqasi.....</i>	50
Xonandalar ansambli.....	51
Varragim	
<i>P. Mo‘min she’ri,</i>	
<i>N. Norxo‘jayev musiqasi.....</i>	53
Kulcha non	
<i>P. Mo‘min she’ri,</i>	
<i>I. Hamrayev musiqasi.....</i>	54
“Bulbulcha” bolalar	
ansambli haqida.....	55
Bugun yana “besh” oldim	
<i>P. Mo‘min she’ri,</i>	
<i>Sh. Yormatov musiqasi.....</i>	56
“Tomosha” bolalar	
ansambli haqida.....	57
Buvijon	
<i>K. Turdiyeva she’ri,</i>	
<i>N. Qurbonova musiqasi.....</i>	58
Bolari	
<i>P. Mo‘min she’ri,</i>	
<i>A. Mansurov musiqasi.....</i>	59



ANSAMBL TURLARI





3-chorak

1–2- darslar

ANSAMBL

Vokal (ovoz) yoki cholg'u musiqa asarining bir necha kishi tomonidan ijro etilishi ***ansambl*** ("birgalikda" degan ma'nosini anglatadi) deyiladi.

Ijrochilar soniga qarab ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi uchun bo'lsa ***duet***, uch ijrochi – ***trio***, to'rt ijrochi – ***kvartet*** va hokazo.

DUET





3-chorak

TRIO



KVARTET





KATTA BUG'U


Fransuz xalq qo'shig'i,
N. Seliverstova moslashtirgan



Shoshilmasdan

The musical notation consists of four staves of music. The first three staves are in 2/4 time, and the fourth staff begins in 3/4 time. The notes are primarily quarter notes and eighth notes, with some sixteenth-note patterns. The lyrics correspond to the notes as follows:

Staff	Notes	Lyrics
1	Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q	Катта буг'у шошилмасдан
2	Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q	Катта буг'у шошилмасдан
3	Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q	Катта буг'у шошилмасдан
4	Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q Q, Q, Q, Q	Катта буг'у шошилмасдан





3-chorak


**YOSH ASKARLAR QO'SHIG'I**

S. Barinoyev she'ri,
S. Jalil musiqasi

Marsh suratida

Biz - lar bo - tir yosh jang-chi – Si - nov - lar - da chi- niq - qan.

Xor




Si - nov - lar - da chi- niq - qan. U - chuv-chi - Miz ham tank-chi –



Mashq-lar-da g'o - lib chiq-qan.

Naqarot:

Xor



"Ol - g'a!" bu – biz - ning shi - or, Saf - da tu - ra - Miz a - dil.



Ti - zi - lib tur - na qa - tor, Qa - dam tash-lay- Miz da - dil.

Bizlar botir yosh jangchi –

Do'stga fido jonimiz,

Sinovlarda chiniqqan.

Ochiq dasturxonimiz.

Uchuvchimiz ham tankchi –

O'zimizday mustahkam

Mashqlarda g'olib chiqqan.

E'tiqod, iymonimiz.

Naqarot:

Naqarot.

"Olg'a!" bu – bizning shior,

Toblanamiz yoz-u qish,

Safda turamiz adil.

Ko'rib qo'ying, mehmonlar.

Tizilib turnaqator,

Har birimiz Alpomish,

Qadam tashlaymiz dadil.

Biz bo'lajak posbonlar.

Naqarot.

Naqarot.



"Yosh askarlar qo'shig'i"ni cholg'u jo'rligida
ifodali kuylab bering.



Music notation in G clef, 2/4 time signature. The lyrics are:

Biz - lar bo - tir yosh jang-chi Si - nov - lar - da chi- niq - qan.



Yarimtalik pauzalar ishtirokida 4/4 o'Ichovida
mashq bajaring.



Music notation in G clef, 4/4 time signature. The lyrics are:





3-chorak

**3–4-
darslar**

CHOLG'UCHILAR ANSAMBLI

Musiqa asarini birgalikda, bir xil ijro etadigan cholg'uchilar guruhi-ga “Cholg'uchilar ansamblı” deyiladi. Cholg'uchilar ansamblı turli cholg'ulardan tuziladi. Unda dutor, rubob, nay, g'ijjak, chang, tanbur, doira kabi cholg'ular bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ansambl bir xil cholg'ulardan ham tuziladi. Masalan: rubobchilar ansamblı, dutorchilar ansamblı, changchilar ansamblı, doirachilar ansamblı va shu kabilar.





USMONIYA



O'zbek xalq kuyi

Shaxdam



Quyidagi mashqlarni avval nota nomlarini aytib, so'ngra so'zlar bilan kuylang. Mashqni kuylashda nafasni uzmaslikka harakat qiling.

1

2

Oq te - rak- mi, ko'k te - rak, Biz -dan siz - ga kim ke - rak?



3-chorak

**BARKAMOL AVLOD BO'LIB**

*P. Mo'min she'ri,
N. Norxo'jayev* musiqasi

Shoshilmasdan

Va-tan, bo-g'im, me-vang-man, Gul-la-ring - man jil-vang-
 man, Yu-rak qar-zim o'-tar - man, Sho-don bo' - lib,
 shod bo' - lib, Bar-ka-mol av-lod bo' - lib,
 Qo' - shiq- la- ring ay - tar - man Sho- don bo' - lib,
 shod bo' - lib, Bar-ka-mol av- lod bo' - lib.

Bahra olib mehringdan
 Toblanaman bag'ringda,
 Sovrirlarni yutarman
 Sog'lom bo'lib, shod bo'lib,
 Barkamol avlod bo'lib.

Quchog'ingni kezayin,
 Chaman misol bezayin,
 O'z gulimdan tutarman
 Sog'lom bo'lib, shod bo'lib,
 Barkamol avlod bo'lib.

Ko'pdir tengdosh do'stlarim,
 Boqsam to'yar ko'zlarim,
 Qo'shiqlaring aytarman
 Sog'lom bo'lib, shod bo'lib,
 Barkamol avlod bo'lib.

5–6- darslar

XONANDALAR ANSAMBLI

Bir necha xonandaning birgalikda qo'shiq ijro etishi "xonandalar ansamblı" deyiladi. Xonandalar ham xuddi cholg'uchilar singari **duet**, **trio**, **kvartet** bo'lib asarlar ijro etadilar.

DUET



TRIO





3-chorak

KVARTET



Berilgan namunalarning o'Ichovini topib, takt chizig'ini qo'yib, mashq daftaringizga to'g'ri ko'chiring.



1.



2.



**VARRAGIM**

*P. Mo'min she'ri,
N. Norxo'jayev* musiqasi

**Chaqqon**

Uch-ga-ni-da var-ra- gim Zavq-qa to'-lar yu-ra-gim. Uch-ga-ni-da



var - ra - gim Zavq-qa to'-lar yu-ra - gim. Keng os-mon-da yel-kan-day,



Keng os-mon-da yel-kan-day Su-zib ket - di var- ra - gim.

Uchganida varragim

Zavqqa to'lar yuragim.

Keng osmonda yelkanday

Suzib ketdi varragim.

Uchganida goh-goh

Har tomonga tashlar shox.

Talay varrakchalarni

Suzib ketdi varragim.

Dardaragi varanglar,

Ana, ana, qaranglar.

Uchayotgan quroqdan

O'zib ketdi varragim.

Rosa uchdi osmonda,

Lekin qoldim armonda:

Kuchli shamol turganda

O'zib ketdi varragim.





3-chorak

**KULCHA NON**

*P. Mo'min she'ri,
I. Hamrayev musiqasi*

**♩ O'rtacha**

O-yim yop-di - lar kul-cha, Moy kul-cha, moy kul-cha. "Ye", de- di -lar,



to'y- gun-cha, to'y-gun-cha, to'y-gun-cha. Kul-cha o'xshar gul-cha-ga,



oh, oh, oh.

Yu-zim o'x-shar kul-cha-ga, oh.

Naqarot:



Kul-cha no-n-u, kul-cha non, Ko'-ri- ni- shi gul- cha non. Kul-cha no-n-u,



kul-cha non, Ko'-ri- ni- shi gul- cha non. Ko'-ri- ni- shi gul- cha non.

Oyim yopdilar kulcha,

Moy kulcha, moy kulcha.

"Ye", – dedilar to'yguncha, to'yguncha.

Kulcha o'xshar gulchaga, oh, oh, oh,

Yuzim o'xshar kulchaga, oh.

Naqarot:

Kulcha non-u kulcha non,

Ko'rinishi gulcha non.

Kulcha non-u kulcha non,

Ko'rinishi gulcha non.

Shirinligi o'zimday, o'zimday,

Issiqligi yuzimday, yuzimday.

Keling, o'rtoqlar, yeymiz, oh, oh, oh.

Oyimga rahmat deymiz, oh!

Naqarot.



**7–8-
darslar**

**SHERMAT YORMATOV NOMIDAGI
“BULBULCHA” BOLALAR XOR
VA RAQS ANSAMBLI**



Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Shermat Yormatov nomidagi “Bulbulcha” bolalar xor va raqs ansamblı 1970-yilda O'zbekiston tele-radiokompaniyasi qoshida tashkil etilgan. Ansambl nafaqat mamlakatimizda, balki Fransiya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Bolgariya, Belorussiya, Ukraina,

Kongo, Finlandiya, Latviya, Litva, Estoniya va boshqa shu kabi davlatlarda o'zbek bolalar qo'shiqchilik san'atini namoyish etgan. Jamoadan 100 ga yaqin O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar, bastakorlar, “Nihol” mukofoti sovrindorlari, turli soha mutaxassislari yetishib chiqqan. Ansambliga sizlarga quyi sinfl ardan o'zining betakror qo'shiqlari bilan tanish bo'lgan Shermat Yormatov (1939–2021) badiiy rahbarlik qilgan.

“Bulbulcha” bolalar xor va raqs ansamblı televideniye orqali munazam ravishda mamlakat qo'shiqsevarlarini bastakorlarimiz tomonidan yaratilgan yangi qo'shiqlar bilan tanishtirib keladi.

Jamoa siz bugungi kungacha o'rgangan “Sog'lom avlod qo'shig'i”, “Neveralar qo'shig'i”, Vatanjonim vatanim”, “Anjir”, “Alifbo bayrami”, “Kuz” kabi 1000 ga yaqin bolalar qo'shiqlarini ijro etib, elimizga manzur bo'lgan.





3-chorak

**BUGUN YANA “BESH” OLDIM**

**P. Mo'min she'ri,
Sh. Yormatov** musiqasi



Takrorladim harflarni
Ustozim dedi: “Balli!”
Qutlang, onajon, meni,
Bugun yana “besh” oldim. (*2 marta*)

Sevib qoldim ilmni,
Sevdim o‘qituvchimni.
Ko‘ring kundaligimni:
Bugun yana “besh” oldim. (*2 marta*)

Vaqtida dars qilgandim,
Vaqt qadrini bilgandim.
Menga havas qilmas kim?
Bugun yana “besh” oldim. (*2 marta*)

O‘sгандай bo‘ldi bo‘yim,
Eh, shirin xayol-o‘yim,
Tushgim keladi o‘yin...
Bugun yana “besh” oldim. (*2 marta*)



“Bugun yana “besh” oldim” qo‘sиг‘ини cholg‘у
jo‘rligida ifodali kuylab bering.



Berilgan namunani nota nomlari bilan kuylab, qo‘sиг‘
nomini toping. Mashq daftaringizga to‘g‘ри ko‘chiring.



9–10- darslar

“TOMOSHA” BOLALAR MUSIQIY TEATR-STUDIYASI

Jajji iste'dodlarni jamlagan “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiya-sining konsert dasturlarini, ayniqsa, kichkintoylar, o'quvchi-yoshlar jondilidan sevib, maroq bilan tomosha qiladilar. “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi ilk “Sharq bozori” nomli konsert dasturini 1988-yilda namoyish qilgan. Uning badiiy rahbari Nodira Qurbanovadir.

“Tomosha” guruhi xalqaro sahnalarda, festivallarda **“Biz ozod va obod, jannatmakon O'zbekiston diyoridanmiz!”** deya baralla qoshiqlar kuylab, xalqimizning urf-odatlari, bayramlari bilan turli davlatlar-dan tashrif buyurgan tengdoshlarini tanishtirib kelmoqda.

Ular Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda o'tkazilgan ko'plab xalqaro bolalar tanlovlariida qatnashib, nufuzli o'rirlarni egallab kelmoqdalar.

Shuningdek, “Tomosha” guruhi “Prezident archasi” bayram tomoshalaring assosiy ishtirokchisidir. Bunday tadbirlarda ular ko'plab qiziqarli mavzulardagi ertak-tomoshalarni sahnalashtirib, bolajonlarimizga hadya etganlar.





3-chorak

**BUVIJON**

K. Turdiyeva she'ri,
N. Qurbanova musiqasi

Nega sizni har qachon
“Buvī” deymiz, buvijon?
Axir, buvilar bari
Bo‘lishi kerak qari.

Naqarot:
Doim shunday yosh bo‘ling,
Hammamizga bosh bo‘ling.
Erkalaysiz bizlarni,
Juda sevamiz sizni. (2 marta)

Dadamizga onasiz,
Eng mehribon donosiz.
Bizni ko‘rsangiz qachon,
Qilasiz achom-achom.

Do-im shun-day yosh bo‘-ling, Ham-ma-miz-ga bosh bo‘-ling. Er - ka-

lay - siz biz-lar - ni, Ju- da se -va-miz, siz- ni.



**BOLARI**

P. Mo'min she'ri,
A. Mansurov musiqasi



Bolarining hech bekori bo'lmaydi,
Bolarining hech beori bo'lmaydi.

Naqarot:

Ishlashadi bolarining
Balalari, xolalari.

Harakatda bolarining
Og'alari, tog'alari.

Bolarilar vazifasin
Bajarishar, bari ishlar,
Bajarishar, bari ishlar.
Bolarilar sira-sira erinmas,
Ish paytida xonasida ko'rinas.


Naqarot:
Shu sababdan bolarilar asali
Bo'lar ekan juda-juda mazali.



Ish-la-sha-di bol -a- ri-ning bo- la -la- ri, xo-la - la -ri.



Ha-ra - kat -da- bol- a - ri -ning o - g'a -la- ri, to- g'a - la -ri.



Berilgan namunalarning o'Ichovini toping va mashq
daftaringizda bajaring.






IV BOB KOMPOZITORLAR BOLALARGA

Kompozitor haqida tushuncha.....	61
Kompozitor Mutual Burhonov... Do'ppi tikdim <i>T. To'la she'ri, M. Burhonov musiqasi.....</i>	61 62
Shaftoliga savolim <i>P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi.....</i>	64
Kompozitor Farhod Alimov... Sariq jo'ja <i>O. Po'latov she'ri, F. Alimov musiqasi.....</i>	65 66
Oppoq qandim <i>P. Mo'min she'ri, F. Alimov musiqasi.....</i>	68
Kompozitor Avaz Mansurov.. Bu chamanzor bizniki <i>X. Qayumov she'ri, A. Mansurov musiqasi.....</i>	69 70
Muzqaymoq <i>X. Qayumov she'ri, A. Mansurov musiqasi.....</i>	72
Kompozitor Xurshida Hasanova..... Bog' ichida <i>I. Jiyanov she'ri, X. Hasanova musiqasi.....</i>	74 75
Shirin-shirin <i>I. Jiyanov she'ri, X. Hasanova musiqasi.....</i>	76
Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.....	77

IV BOB

KOMPOZITORLAR BOLALARGA





4-chorak

1–2- darslar

KOMPOZITOR HAQIDA TUSHUNCHА.
KOMPOZITOR MUTAL BURHONOV

(1916–2002)

Kompozitor – musiqa asarini yaratuvchi ijodkor. U ma'lum bir mavzuni boyitib, badiiy tasvirlab, musiqa tilida bayon etadi. Kompozitorlar ko'p ovozli musiqa va sahna asarlarini ham yaratadilar.

KOMPOZITOR MUTAL BURHONOV

Har tong yurtimizda yangraydigan, xalqimiz g'ururi, iftixori, shon-u shavkati tantanasini tarannum etuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining musiqasini yaratgan atoqli kompozitorimiz Mutual (Mutavakkil) Burhonov 1916-yil 5-mayda Buxoro shahrida ziyorolar oilasida tug'ilgan. Nodir iste'dod egasi barkamol, shirador va jozibali asarlari bilan yurtimiz dovrug'ini dunyoga tanitgan.

U ko'plab sahna asarlari bilan birga elimizga manzur bo'lgan kinofilmlar uchun ham qo'shiqlar yaratgan. Uning "Maftuningman" kinofilmidagi "Maftun bo'ldim", "Yulduz va qizlar qo'shig'i", "Do'ppi tikdim" kabi qo'shiqlari shular jumlasidandir.



**DO'PPI TIKDIM**

*Turob To'la she'ri,
Mutal Burhonov musiqasi*

**Shoshilmasdan**

6
8

Do'p-pi tik-dim i-pak - la - ri til - lo - dan,
I-pak - la - ri de-mang, za - ri til - lo - dan.
Ji-lo ber-sam gul-la-ri-ga, ji-lo ber-sam gul-la-ri-ga,
Ko'-zing o-lur be-zak - la-ri til- lo - dan,
Ko'-zing o-lur be-zak - la-ri til- lo - dan,

Do'ppi tikdim ipaklari tillodan,
Ipaklari demang, zari tillodan.
Jilo bersam gullariga, jilo bersam gullariga,
Ko'zing olur bezaklari tillodan,
Ko'zing olur bezaklari tillodan,
Tillodan.

Guli lola, guli lola,
Ko'zing otashiga olma uni, Lola!
Ko'zing otashiga solma uni, Lola!
Dil-u joni bilan nola qilur Lola!
Dil-u joni ila kuyla, go'zal Lola!





Berilgan namuna o'Ichovini aniqlab, mashq
daftaringizga yozing va takt chiziqlarini to'g'ri qo'ying.





4-chorak

**SHAFTOLIGA SAVOLIM**

P. Mo'min she'ri,
N. Norxo'jayev musiqasi



O'rtacha tez



Shaf-to-lim, oh, shaf-to-lim, oh, shaf-to-lim, oh, shaf- to-lim. Qi-zi-lu oq,



qi- zi - lu oq, qi- zi - lu oq shaf- to - lim. Ham-ma men-day se-va-di,



Pish-gan-da ma-za bo-lim. Shaf- to-lim. Shaf- to-lim.



Shaf- to-lim. Shaf- to-lim.

Asta aytib, asta aytib,
Asta aytib beraqol:
Seni topgan, seni topgan,
Seni topgan qay olim?

Indamadi shaftolim,
Qiyin ekan savolim,
Shaftolim, shaftolim.



Shaf -to -lim, oh, shaf -to -lim, oh, shaf-to-lim, oh, shaf- to-lim.



3–4- darslar

KOMPOZITOR FARHOD ALIMOV

(1947–2014)

Farhod Alimov 1947-yilning 23-oktyabrida Toshkent shah rida tug'ilgan. Yoshligidan musiqaga bo'l gan katta ishtiyobi uni R.Glier nomidagi respublika musiqa maktab-internatiga yetak lagan.

U maktabda g'ijjak cholg'usi ijro-chiligi bo'yicha, keyinchalik esa Toshkent davlat konservatoriyasida tahsil olgan va O'zbekiston radiosi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga sozanda bo'lib ishga kirgan. Orkestrdagи faoliyati davrida musiqa bastalashga intilib, qo'shiq va kuylar yoza boshlagan. Farhod Alimov bolalar uchun ko'plab ajoyib asarlar yaratgan. U "Biz istiqbol egalari", "Ona tilim – o'zbek tilim", "Ahillik – do'stlik", "Chaqqon bola", "Mehrjon", "Ozod vatan – obod vatan", "Sariq jo'ja", "Oppoq qandim" kabi ajoyib qo'shiqlari bilan bolalar qalbidan joy olgan.

Farhod Alimovning o'zbek musiqa rivojiga qo'shgan hissasi munosib baholab-nib, 2007-yilda "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" faxriy unvoni va "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan.





4-chorak

**SARIQ JO'JA**

O. Po'latov she'ri,
F. Alimov musiqasi

**Chaqqon**

Yakkaxon:

Jo' -ja-la-rim -ning pat-la-ri sa-riq Qa-rang, ko'z-la-ri mi-so-li ta-riq.

Jo' -ja-la-rim -ning pat-la-ri sa-riq, Qa-rang, ko'z-la-ri mi-so-li ta-riq.

Har kun u-lar-ga don-dun be-ra-man,
Yo'-qol-sa bi-ri, to-pa-man shu on. Har kun u-lar-ga don-dun be-ra-man.

Ba-ri but-mi deb sa-nab ko'-ra-man.
Jo' -ja as-rash-ning zav-qi bir ja-hon. Ba-ri but-mi deb sa-nab ko'-ra-man. Hey

Jo' -ja, jo' -ja, jo' -ja-la-rim -ning pat-la-ri sa-riq. Qa-rang, ko'z-la-

ri mi - so - li ta - riq, mi - so - li ta - riq.

Naqarot:

Jo'jalarimning patlari sariq,
Qarang, ko'zlari misoli tariq.

Har kun ularga don-dun beraman,
Bari butmi deb sanab ko'raman.



Yo'qolsa biri, topaman shu on,
Jo'ja asrashning zavqi bir jahon.



"Sariq jo'ja" qo'shig'ini tinglab, mazmunini so'zlab bering.



Jo' - ja-la-rim - ning pat-la-ri sa-riq, Qa-rang, ko'z-la-ri mi-so-li ta-riq.



Berilgan namunani nota nomlari bilan kuylab, qo'shiq nomini toping. Mashq daftaringizga to'g'ri ko'chiring.





4-chorak



OPPOQ QANDIM

*P. Mo'min she'ri,
F. Alimov musiqasi*

O'rtacha

Sheet music for 'OPPOQ QANDIM' in 2/4 time, major key, with lyrics below the notes.

Choy - ga sol - sam te - rib - te - rib, Sen ke - ta - san
 tez - da e - rib. Choy - ga sol - sam te - rib - te - rib,
 Sen ke - ta - san tez - da e - rib.
 Op - poq qan - dim, yum - shoq qan - dim.

Choya solsam
 terib-terib,
 Sen ketarsan
 tezda erib,
 Oppoq qandim,
 yumshoq qandim.

Kir qo'l bilan
 ushlaymayman,
 Uvol qilib
 tashlaymayman,
 Oppoq qandim,
 yumshoq qandim.

Shirin bo'lar
 ichgan choyim,
 Hamma mendan
 xursand doim.
 Oppoq qandim,
 yumshoq qandim.





5–6- darslar

KOMPOZITOR AVAZ MANSUROV

Avaz Mansurov 1957-yil 2-noyabrda Qo'qon shahrida tug'ilgan. Uning bolalik yillari teatr sahnasida hamda mashhur xonanda va sozandalar-ning musiqa va she'riyat davralarida o'tgan. Musiqa va san'atga bo'lgan qiziqishi uni bolalar musiqa maktabiga yetaklagan. Avaz Mansurovning musiqa bastalashga mehri bolalar musiqa mакtabida o'qib yurgan kezla-rida boshlangan. Uning ilk ijodiy ishi fortepiano uchun "Qizcha va tulki", "Qo'rinchli tush" ertaklariga yaratil-gan musiqiy asarlar edi.

Avaz Mansurov o'quvchi yoshlarning sevimli kompozitorlaridan biri. Uning 100 dan ortiq qo'shiqlari o'zi-ning rang-barang mazmuni, ohangi-ning jozibasi va yoqimliliqi bilan ting-lovchilar qalbidan o'rin olgan. Siz kompozitorning "Oq terakmi, ko'k terak?", "Bolarilar" qo'shiqlarini sevib iじro etgansiz. Kompozitorning "Salom, quyosh", "Muzqaymoq", "Kitob, me-ning do'stimsan", "Istiqlolim", "Quvnoq yomg'ir" kabi ko'plab qo'shiqlari o'quvchi yoshlar orasida mashhurdir.





-4-chorak-



BU CHAMANZOR BIZNIKI

X. Qayumov she'ri
A. Mansurov musiqasi

Chaqqon

The image shows two measures of musical notation for piano. The key signature is one sharp (F# major). Measure 11 starts with a dynamic of *mf*. It consists of six eighth-note chords: C major (C, E, G), D major (D, F#, A), E major (E, G, B), F# major (F#, A, C#), G major (G, B, D), and A major (A, C#, E). Measure 12 begins with a half note G. The right hand continues the sequence of chords from measure 11, while the left hand provides harmonic support.

Gul-bog'-lar-ning chi-ro - yi Qo'-shig'imiz, raq-si-miz.
Biz-lar nur-li di-yor-ning Shod-li-gi va naq-shi-miz.

The image shows the musical score for Beethoven's "Ode to Joy" from the Ninth Symphony. It features two staves of music in common time, treble clef, and G major. The first staff begins with a half note followed by a quarter note. The second staff begins with a half note followed by a quarter note. The lyrics "Freude schöner Götterfunken" are written below the notes.

1-marta yakkaxon,
2-marta guruh.
Nagarot:

A musical score for a single instrument, likely a woodwind or brass, featuring a treble clef and a common time signature. The score consists of two staves of music. The first staff begins with a sixteenth-note pattern followed by a eighth-note followed by a sixteenth-note. The second staff begins with a eighth-note followed by a sixteenth-note followed by a eighth-note.

Shod-li-gi va naq-shi-miz. Bu cha-man-zor kim-ni- ki?

A musical score for 'Pachelbel's Canon' in G major, 4/4 time. The page shows measures 11 through 12. The melody is played by the first violin, while the second violin provides harmonic support. The bassoon and cello play sustained notes throughout. Measure 11 ends with a repeat sign and a double bar line, leading into measure 12. The notation includes various note heads, stems, and rests.

Bu cha-man-zor kim-ni- ki? Bu cha-man-zor, bu cha-man-zor,

The musical score shows two measures. Measure 1.3 consists of six eighth-note strokes on the first six strings. Measure 2.4 begins with a sixteenth-note rest followed by six eighth-note strokes on the first six strings.

Bu cha-man-zor biz-ni- ki!

1-marta yakkaxon,
ff 2-marta quruh

A musical score for 'Lagu Bambang' on a treble clef staff. The score consists of two measures. Measure 11 starts with a whole note followed by a dotted half note, then a series of eighth notes. Measure 12 begins with a half note. The lyrics '|| 2 Marta gurun.' are written above the staff.

Iz-la-ri-dan gul u-nar, baxt-li o'-g'il qiz-ni- ki. Kim-ni-ki? Biz-ni- ki! Kim-ni-ki? Biz-ni- ki!

The musical score consists of two staves. The first staff, labeled "Hamma:", contains a single melodic line with various note heads and rests. The second staff, labeled "§ Tamomlash uchun", begins with a section of eighth-note pairs followed by a measure of rests. Both staves are set against a background of vertical bar lines.

[1.] f [2.]

A musical staff showing a series of eighth notes. The first six notes have black heads, and the seventh note has a white head with a black dot, indicating a fermata. A vertical brace groups the first six notes.

Bu cha-man-zor biz-ni- ki! Bu cha-man-zor biz-ni- ki!

Bu cha-man-zor biz-ni- ki!

Bu cha-man-zor biz-ni- ki! Bu cha-man-zor biz-ni- ki!





Gulbog'larning chiroyi
Qo'shig'imiz, raqsimiz.
Bizlar nurli diyorning
Shodligi va naqshimiz.

Naqarot:

Bu chamanzor kimniki?
Bu chamanzor bizniki!
Bu chamanzor, bu chamanzor,
Bu chamanzor bizniki!
(gapirib) Izlaridan gul unar
Baxtli o'g'il-qizniki.
Kimniki? Bizniki!
Kimniki? Bizniki!
(kuylab) Bu chamanzor bizniki!

Taronalar yangrasin,
Nurga to'lsin yer, samo.
Kuyimiz jaranglasin,
Tinchlik bo'lsin doimo.

Naqarot.





4-chorak

**MUZQAYMOQ****H. Qayumov she'ri,
A. Mansurov musiqasi****Chaqqon**

Muz-day-muz-day muz-qay-moq, Sut- day op - poq,
 soz qay - moq, Muz-day-muz-day muz-qay-moq, Sut- day op - poq,
 soz qay - moq. As - ta - gi - na a - vay - lab, a - vay - lab,
 Chay-na-mas-dan a-tay- lab, a - tay- lab Sol -ga -nim-da og' -zim - ga
 E- rib ke-tar bir zum - da, E- rib ke-tar bir zum - da.

Naqarot:

Muzday-muzday muzqaymoq,
 Sutday oppoq, soz qaymoq. (*2 marta*)


Astagina avaylab, avaylab,
 Chaynamasdan ataylab, ataylab
 Solganimda og'zimga
 Erib ketar bir zumda. (*2 marta*)

Naqarot.

Muzqaymog'im hozir ham
 Eridi-yu yo'qoldi,
 Lekin totli mazasi
 Mening og'zimda qoldi.

Naqarot.

Muzday-muzday muzqaymoq,
Sutday oppoq, soz qaymoq.



O'Ichovini topib, mashq daftaringizda bajaring.





4-chorak

7–8- darslar

KOMPOZITOR XURSHIDA HASANOVA

O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi a’zosi, kompozitor Xurshida Hasanova 1967-yilning 7-sentyabrida Toshkent shahrida tug‘ilgan.

U T. Sodiqov nomidagi Toshkent shahar bolalar musiqa maktabining fortepiano sinfida o‘qigan. O‘zbekiston davlat konservatoriyasini kompozitorlik mutaxassisligi bo‘yicha tamomlab, ko‘plab katta asarlar bilan birga bolalar uchun “Sehrli dunyo”, “Bog‘ ichida”, “Sumalak”, “Qaldirg‘och”, “Laylaklar”, “O‘zbekiston – jannat” kabi ajoyib qo‘shiqlar ham yaratgan. Yodingizda bo‘lsa, “Sehrli dunyo” qo‘shicini quyi sinfl arda o‘rgangan edingiz.

Xurshida Hasanova televide niye bilan hamkorlikda “Navro‘z fantaziysi”, “G‘aroyib kashfi yot”, “Bolalik orzusi”, “Navro‘zoy” musiqli videofilm-lariga, “Tog‘da o‘tgan quvnoq yoz” kabi bolalar filmiga musiqiy asarlar yaratgan. Shuningdek, kompozitor “Zumrasha” hajviy kinojurnalining musiqa bastakori va “Quvnoq notalar” ko‘rsatuvining boshlovchisi hamdir. U 2018-yilda “Do‘stlik” ordeni sohibi bo‘lgan.





BOG' ICHIDA

I. Jiyanova she'ri,
X. Hasanova musiqasi

Tez

Bog' i-chi-da gul o-chi-lib-di, Bo'-yi har ta-raf-ga so-chi-lib-di.

Chi-ro-yi-ni ko'-rib ka-pa-lak-lar Men-dan av-val bo-g'im-ga ke-lar.

Gul g'un-cha-si-ni uz-gim ke-lar, U-ning su-ra-ti-ni chiz-gim ke-lar.

Qo'-lim-ga ip, igna o-lib, so' - za- na - ga

Cha-man-zor-ni chiz-gim ke-lar o' - zim ya - na.

Naqarot:

Bog' ichida gul ochilibdi,	Gul g'unchasini uzgim kelar,
Bo'yi har tarafga sochilibdi.	Uning suratini chizgim kelar.
Chiroyini ko'rib kapalaklar	Qo'limga ip, igna olib, so'zanaga
Mendan avval bog'imga kelar.	Chamanzorni chizgim kelar o'zim yana.

Naqarot.

Qop-qora sochim sumbulaga
O'xshar, kipriklarim – maysalarga.
Meni hamma o'xshatadi faqat gulga,
Guldek go'zal orzularim to'lar dilga.





4-chorak

**SHIRIN-SHIRIN**

I. Jiyanova she'ri,
X. Hasanova musiqasi

Quvnoq

Os-mon-da yul-duz-chalar, Yo-ni-da bo'l-gim ke-lar. Bo-g'im-da-gi g'un-cha-lar



Bi-lan o-chil-gim ke-lar. O-chil-gim ke-lar, o-chil-gim ke - lar,



Bo-g'im-da g'un-cha-dek o-chil-gim ke-lar. Shi-rin-shi-rin so'-zim-ga,



Jay-ron-gi-na ko'-zim-ga, Of-tob ku-lib bo-qad-i Oy-dek-ki-na yu-zim-ga.

Bahor bilan, yoz bilan
O'ynab yurgim keladi.
Jaranglagan soz bilan
Qo'shiq aytgim keladi.

Naqarot.



O'Ichov, nota cho'zimi va pauzalarni
mustahkamlash.



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Ansambl nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
2. Duet nima? Trio, kvartet-chi?
3. “Yosh askarlar qo’shig‘i”ning mualliflari kim? Uning mazmunini so’zlab bering.
4. Cholg‘uchilar ansambl deb qanday ansamblga aytamiz?
5. Xonandalar ansambl deb qanday ansamblga aytamiz?
6. “Varragim” qo’shig‘ining mualliflari kim? Uning mazmunini so’zlab bering.
7. “Kulcha non” qo’shig‘ining mualliflari kim? Uni cholg‘u jo‘rligida ifodali ijro etib bering.
8. “Bulbulcha” bolalar xor va raqs ansambl haqida nimalarni bilib oldingiz?
9. “Bugun yana “besh” oldim” qo’shig‘ining mualliflari kim? Uni cholg‘u jo‘rligida ifodali ijro etib bering.
10. “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi qachon tashkil etilgan? Ushbu jamoa haqida nimalarni bilib oldingiz?
11. “Buvijon” qo’shig‘ining mualliflari kim? Uning mazmunini so’zlab bering.
12. “Bolari” qo’shig‘ining mualliflari kim? Uni cholg‘u jo‘rligida ifodali ijro etib bering.
13. Kompozitor deganda kimni tushunasiz? Quyi sinflarda qaysi kompozitor va bastakorlar bilan tanishdingiz?
14. Kompozitor Mutual Burhonovning qaysi asarlarini bilasiz?
15. “Do’ppi tikdim” qo’shig‘i mazmunini so’zlab bering.
16. “Shaftoliga savolim” qo’shig‘ining mualliflari kim? Uni cholg‘u jo‘rligida ifodali ijro etib bering.



4-chorak

17. Kompozitor Farhod Alimov haqida nimalarni bilib oldingiz? Kompozitorning qaysi asarlarini o'rgandingiz?

18. Kompozitor Avaz Mansurov haqida nimalarni bilib oldingiz? Kompozitorning qaysi asarlarini o'rgandingiz?

19. "Muzqaymoq" qo'shig'ining mualliflari kim? Uni cholg'u jo'rligida ifodalı ijro etib bering.

20. Berilgan namunani mashq daftaringizga to'g'ri ko'chiring.



21. Kompozitor Xurshida Hasanova haqida nimalarni bilib oldingiz?

Kompozitorning qaysi asarlarini o'rgandingiz?

22. "Bog' ichida" qo'shig'ining mualliflari kim?

23. "Shirin-shirin" qo'shig'ining mualliflari kim? Uni cholg'u jo'rligida ifodalı ijro etib bering.

24. Ushbu namunani kuylab, nomini toping.



25. "Sariq jo'ja" qo'shig'ining mualliflarikimlar?

26. "Shaftoliga savolim" qo'shig'i ritmini chapakda ifoda eting.

27. "Oppoq qandim" qo'shig'i ritmini chapakda ifoda eting.

28. Berilgan namunani nota nomlari bilan kuylang.



29. Berilgan namunani do bo'g'inida kuylab bering.



30. Yil davomida o'rgangan sevimli qo'shiqlaringiz nomini aytинг.

Musiqa 3-sinf [Matn]: darslik / N. Norxo'jayev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022. – 80 b.

ISBN 978-9943-7813-7-5

UO'K 78(075.3)

KBK 85.31ya72

O'quv nashri

Nadim Norxo'jayev

Dilnora Umidova

Noibaxon Rashidova

MUSIQA

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining

3-sinfi uchun darslik

Muharrir Orifjon Madvaliyev

Texnik muharrir Akmal Sulaymonov

Rassom Fotima To'ychiyeva

Dizayner Ominaxon Egamberdiyeva

Musahhih Nazokat Utayeva

Sahifalovchi Oygul Fozilova

Bosishga ruxsat etildi 07.05.2022. Bichimi 60x84 1/8.

Arial garniturası. Kegli 14 shponli. Ofset bosma.

Shartli bosma tabog'i 9,30. Nashriyot-hisob tabog'i 6,27.

Adadi —— nusxa. Buyurtma № ____.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi	Darslikning topshiril- gandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib
olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan
quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaq-lari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.